

OILAVIY MUNOSABATLARI: TARIX VA TARAQQIYOT

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti talabasi

Toshtemirov Dostonbek Sherali O'g'li

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada oila, oilaviy munosbatlarda huquq va majburiyatlar, er va xotin o'rtaSIDagi ijtimoiy munosabatlarni oila qonunchiligi bilan tartibga solish masalasi, milliy urf-odat va qadriyatlarimizning oilaviy munosabatlarda tutgan o'rni va ahamiyati, oilaviy munosabatda vujudga kelgan nizoli holatlarda ularni tartibga solishning huquqiy hamda konstitutsiyaviy asoslariga doir ma'lumotlar aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Oilaviy munosabatlar, farmolar, konstitutsiya, matrilokal, nuklear, adolat, insonparvarlik, strategiya .*

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРАВ И ОБЯЗАННОСТЕЙ В СЕМЕЙНЫХ  
ОТНОШЕНИЯХ**

**Аннотация:** В данной научной статье рассматриваются семья, права и обязанности в семейных отношениях, вопрос регулирования общественных отношений между мужем и женой семейным правом, роль и значение наших национальных традиций и ценностей в семейных отношениях, их регулирование в конфликте. В ситуациях, возникающих в семейных отношениях, отражена информация о его правовых и конституционных основах.

**Ключевые слова:** Семейные отношения, декреты, конституция, матрилокальный, ядерный, справедливость, правосудие, гуманитарное, человечество, стратегия.

**THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF RIGHTS AND OBLIGATIONS IN FAMILY  
RELATIONS**

**Abstract:** In this scientific article, the family, rights and obligations in family relations, the issue of regulating social relations between husband and wife by family law, the role and importance of our national traditions and values in family relations, and their regulation in conflict situations arising in family relations information on its legal and constitutional foundations is reflected

**Key words:** Family relations, decrees, constitution, matrilocal, nuclear, justice, humanitarian, strategy.

Insoniyat oila bag'rida tug'iladi, o'sadi, kamol topadi. Barkamol inson usib ulg'aygan dargoh muqaddas hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyev-“Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun. Oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz” - deb ta'kidlab otganda haq edilar.[1]

Oilaning shakllanish tarixi, oiaviy munosabatlarga nurlicha nazariyalar o'rganilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo'limgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to'da-to'da bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo'lmay, to'dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-onal bilan farzandlar, so'ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo'lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo'jalikka ega bo'limgan. Bu davrda tabiiy omil o'z vazifasini tugalladi, ya'ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi. [2]

Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo'lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi. [3]

Oila -nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari -inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqelik ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchi hisoblanadi. Har bir oilaning baxtiyorligi va farovonligi natijasida jamiyatning barqarorligi, gullabyashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a'zolarini, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir.Ushbu tushunchaning tarixiga yuzlanadigan bo'lsak: Oila – ijtimoiy instittlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog' omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-

mamotni ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo`lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin. [4]

Oila – jamiyatning ajralmas bo`lagi. Oila – asrlar davomida shakllanib kelgan jamiyatning mustahkam poydevori, jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi qudratli maskan. Jamiyatning har tomonlama farovonligi oilaning mustahkamligi, farovonligi, tinchligi va xotirjamligiga bog'liq. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo`qli, u o`zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo`lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o`z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya`ni, o`z uyi, oilasida baxtli bo`lgan insongina o`zini to`laqonli bahtiyor his etadi.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, oila, xotin-qizlar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash, bandligini ta'minlash, kambag'allikning oldini olish, hayotdan xursandlik hissini shakllantirish, davlat va jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning bilim olishlari, kasb egallashlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularning turli sohalarda qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy faolligini oshirish, gender tengligini ta'minlash kabi qator masalalarga oid 100 ga yaqin huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. [5] Ayniqsa, keyingi yillarda bu borada olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bois Uchinchi Renessans poydevoriga asos solinayotgan bir davrda oila institutini mustahkamlash va uning tinchligi, xotirjamligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oila jamiyat poydevori sifatida nafqat O`zbekistonda balki butun dunyoda juda katta orin tutadi. Oila qancha mustahkam bo`lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va rivojlanadi.

Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkilotninig Bosh Assambleyasi 1994-yildan e'tiboran har yili 15 may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani beziz emas. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 16-moddasida shunday deyilgan: Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklovlarsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganlarida ham, nikohda bo`lgan vaqtida ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar. [6] Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida belgilab berilgan 7 ta yo'nalishning beshinchi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishi bo'yicha 71-78-maqсадлarning mohiyati ham oilaning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-

qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 81-sod Farmoni qabul qilindi. [7]

Ushbu qarorlar ijrosini Qo'mita oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi; oila va xotin-qizlar masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy tartibda Qo'mita bilan kelishiladi; Qo'mita tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilingan qarorlarning ijrosi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijo etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabдор shaxslari, shuningdek, fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi; Qo'mita xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlarga har tomonlama ko'maklashish hamda ularning faoliyati samaradorligini oshirishga mas'ul hisoblanadi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'naliш beradi. O'z farzandlarini katta oqimga-jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'naliшi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejaml va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. O'zbek oilalari o'zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turishini hech kim inkor qilaolmaydi.

Ushbu qadriyatlarga tayanadigan bo'lsak inson shaxsini shakllantirishda oila, shubhasiz, dastlabki bosqich vazifasini o'taydi, ya'ni oilada odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va davlatga nisbatan munosabatiga asos solinadi. Shu munosabat bilan «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi «Jamiyat va oila: ma'naviy va axloqiy olam» mavzuyida so'rov o'tkazdi. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad - O'zbekiston fuqarolarining oila va oilaviy munosabatlarga qarashi, milliy qadriyatlар va mahallaning oila hayotidagi o'mi, bu borada barqaror an'analami tiklash, axolining huquqiy savodxonligi darajasini aniqlash va o 'rganishdan iborat edi. So'rovda 10 viloyat, Qoraqalpog'iston va Toshkent shahri qamrab olindi. Unda erkaklar va ayollar, shahar va qishloq axolisi ishtirok etdi. «Zamonaviy oila jamiyat hayotida qanday asosiy vazifani o 'taydi?» - degan savolga so'ralganlaming 47,5 foizi oila jamiyat va davlat asosi, deb javob berdi. So'rov ishtirokchilarining 21,2 foizi oila yosh avlodni tarbiyalash vazifasini bajaradi, - degan fikr bildirdi, 11,2 foiz so'rov ishtirokchilarining fikricha, oila mamlakatda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashadi, 7,9 foiz odamlar esa oila vazifasini nasi qoldirishda, deb biladi. Oilaning har bir inson hayotidagi ahamiyati haqida so'ralganlar quyidagi fikrlarni bildirdi: «u naslni davom

ettirish, bolalar tug'ilishi va tarbiyasi uchun zarur» (63,2 foiz), «oila - inson qo'rg'oni, unga hayotda ishonch bag'ishlaydi» (28,8 foiz), «oila odam qariganda uni ta'minlash uchun zarur» (4,9 foiz). "Ayni paytda poytaxtlik so'ralganlarning 52.6 foizi oila jamiyatning asosi avvalambor, hayotda ishonch bag'ishlovchi qo'rg'on ekanligini ko'proq ta'kidlab o'tishdi. [8]

O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi.. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralarini to'g'risida" 1994-yil 22-avgustda farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam berishning ko'lami kengaytirildi.

Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalgalashiriladigan tadbirlar to'g'risida davlat dasturi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan. Qolaversa, amaldagi Konstitutsiyamizning 76-moddaga asosan "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarining ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarining ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi." Undan tashqari bosh qomusimizning oltin normasi deya e'tirof etiladigan 80-moddasida "Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar." Bu esa o'z navbatida bolalarning ham ota-onalari oldidagi majburiyatlarini Konstitutsiyaviy huquqi asosi sifatida belgilab qo'yilgan. Zero, bizning urf-odat va milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos jihatlaridan biri ham aynan farzandlarning ota-onalar oldidagi ulkan burchini bevosita hamda bilvosita bajarishida namoyon bo'ladi. [9]

Nikohni tuzish va bekor qilish, bolalarni tarbiyalash va mulkni taqsimlash bilan bog'liq masalalar har bir davlatda turlicha bo'lib misol uchun Rossiya Federatsiyasining Oila kodeksi bilan tartibga solingan normaga e'tibor beradigan

bo'lsak, 2017 yilgi Oila kodeksi turli sohalarni tartibga solgan, misol uchun quyidagilarni sanab o'tishiz mumkun:

- nikoh;
- ajralish;
- er va xotin o'rtasida mulkni bo'lish tartibi;
- onalikni va otalikni belgilash;
- ota-ona huquqlaridan mahrum qilish tiklash;
- to'liq bo'lмаган oilalarda o'sayotgan bolalarning huquqlarini himoya qilish.

Agar sud amaliyotini ko'rib chiqishga murojaat qilsak (ishlar bo'yicha ma'lumotni olish mumkin), ko'pincha da'volar ajralish, aliment undirish, ajrashgandan keyin bolalar bilan muloqot qilish va voyaga etmaganlarga vasiy tayinlash masalalari bo'yicha beriladi.

Shu o'rinda oila, xotin-qizlar va keksa avlod vakillari bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, mahallalarni qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va o'zaro hamkorligini ta'minlash maqsadida davlatimiz rahbari tominidan olib borilayotgan islohotlarga alohida to'xtalib o'tish deb lozim topdim. Xususan:

"Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-87-son, 07.03.2022 y.) qabul qilingan bo'lib. Farmonga muvofiq, 2022-yil 1-sentabrdan byudjet tashkilotlaridan boshqa barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oyda uzluksiz ish staji bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqib byudjet hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadigan bo'ldi. Ushbu to'plamdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni hamda 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotinqizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-son qarori va 15-may "Xalqaro oila kuni" munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning huzuridagi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot institutida "Oila instituti rivojlanishida qadriyatlarning o'rni: milliy va xorijiy tajriba" mavzusida 2022-yilning 17-may kuni tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari o'rin olgan..Ushbu qonunlarni qabul qilishdan maqsad jamiyatda yangi oila tipini yaratish ya'ni oila azolarining dunyo qarashi keng, o'z huquqlaridan to'laligicha foydalana oladigan,yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalay oladigan oilani ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oilaviy muommolar bu turli sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin, jumladan:

-Oilaviy hayot boshpana va xavfsizlik joyi bo'lishi mumkin, ammo ba'zilar uchun bu og'riq va umidsizlik manbai. Bizning oilalarimiz tashqi dunyodan ko'plab stress va zo'riqishlarni o'zlashtiradi - va bosimlar qaynab ketishi mumkin. Ba'zida shaxsiy muammo, ayniqsa yoshlar, oilani engib o'tishi mumkin va oldinga aniq yo'l yo'qdek

tuyuladi. Boshqa paytlarda oila ichidagi o'zgarishlar boshqa a'zolarni sarosimaga soladi, g'azablanadi yoki xafa qiladi.

-Turli xil shaxslar o'zaro to'qnashuvi va narsalarni qilish usullari bo'yicha kelishmovchiliklar Birodarlar va opa-singillar o'rtasidagi rashk yoki janjal ota-onalar bahslashmoqda ajralish Yangi o'gay ota-onalar yoki o'gay aka-uka va opa-singillar Ruhiy salomatlik, nogironlik yoki kasallikka chalingan ota-onsa yoki qarindosh Ota-onsa yoki qarindoshning alkogol yoki giyohvand moddalar bilan bog'liq muammolari Ishsizlik, pul yoki uy-joy muammolari tufayli stress. Oiladagi zo'ravonlik madaniy yoki avlod farqlari bemorning oqibatlari suiiste'mol yoki e'tiborsizlik.

Shuning uchun ham yo'qiridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga keldim. Oila munosabatlar ikki shaxs er va xotin o'rtasidagi huquqiy oilaviy aloqadir. Bu xususan Hindiston qonunida ham oila munosabatlar turli xil sifatida ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin. Oilaviy munosabatlar, masalan, qarindoshlar begona shaxslar er va xotin subyekt bo'lishi mumkin. Oilaviy munosabatlarda ko'pincha er va xotin o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni nazarda tutilishi, bu bevosita oilaviy munosabatlarga shartnomalar, nikoh va fuqarolik olib kiridhi mumkin ekan. Boshqa fundamental huquqiy tushunchalar singari, oilaviy munosabatlarni aniqlash va tasniflashning ko'plab turli usullari ilgari surilgan bo'lishiga qaramay eng avvalo oilaviy munosabatlarda er va xotinning bir-biriga bo'lgan ishonch, mehr-muhabbat va o'zaro er va xotinni bir birini tushunish katta ahamiyat kasb etarkan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruza. 2018 y. 7-fevral
2. Oila-Demografiya portal.
3. Polunina I.A. Oilaviy "Psixologik maslahat". Balashov, 2003 yil.
4. <https://genderi.org/oilaviy-munosabatlar>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prizdent Farmoni, 01.03.2022 yildagi PF-81-son
6. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti
7. Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 81-son Farmon.
8. "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi veb sayti.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T, O'zbekiston" 2023. 120.b
10. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН-III РЕНЕСАНСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ҲИМОЯСИ PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022. ISSUE 13 – 226 p. 94-99

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)**

11. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. 203-207

<http://www.bestpublication.org/>

12. Сайдисаков Саидахрор Сайдакрамович. ЭМОТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И КАТЕГОРИЯ ЭМОТИВНОСТИ. 7 – ТОМ 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. <http://www.bestpublication.org/>. 198-202

13. Chuboyeva Ozodaxon “New Uzbekistan: Administrative Management Reform” Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367. <https://zienjournals.com>

14. Kuvonbekovna C. O. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI //PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 2. – С. 194-198.